

MISR LAHJASINING AYRIM O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toxir Xamzayev Saparovich

“ALFRAGANUS UNIVERSITY”

nodavlat oliy ta’lim tashkiloti Sharq filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada arab tilining o‘zbek xalqi uchun naqadar muhimligi va uning qimmati, shuningdek hozirgi kunda arab tili davlat tili sifatida tan olingan mamlakatlar va ulardagi dialektlar haqida qisqa ma’lumot beriladi. Arabshunos olimlarning arab shevalarini ikki katta guruhga bo‘lishlari va bu guruhlariga qaysi davlatlar kirishi haqida mulohaza yuritiladi. Maqolaning asosiy qismi Misr arab respublikasida muomalada bo‘lgan lahja xususiyatlariga qaratilgan va ayrim misollar bilan ko‘rsatilgan. Ko‘rsatish olmoshlari, inkorni ifodalovchi qo‘shimchanning lahjada ifodalanishi, fe’lning o‘tgan va hozirgi kelasi zamon inkor shaklining lahjada qo‘llanilishi va so‘roq gaplarning yasalishi kabi xususiyatlar ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Arab davlatlari, dialektlar, lahjalar, shevalar, asl arablar, arablashgan arablar, mashriq arab shevalari, arab mavrid shevalari, arab adabiy tili, Misr dialektiga xos xususiyatlar.

Markaziy Osiyoga islom dinining kirib kelishi natijasida XI asrning oxiriga kelib o‘zbek tilida ham arab elementlarining keng qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi. Ba’zi olimlarning ko‘zqarashicha, hozirgi o‘zbek tilidagi so‘zlarning 50 % dan ko‘proq qismini asli arabiy so‘zlar tashkil qiladi. Ma’naviyatimiz tarixiga doir ilmiy va adabiy asarlarning aksariyati aynan arab tilida yozilgan. Arab tilini o‘rganish nafaqat tariximizni yoki adabiyotimizni o‘rganishga yordam beradi, balki hozirgi texnika rivojlangan va sayohat qilish juda ham oson bo‘lib qolgan bir davrda arab millatiga mansub xalqlar bilan ularning ona tilisida so‘zlashish, dunyo mamlakatlari bilan tinch-totuv yashash va ijtimoiy-siyosiy aloqalarni arab tilida olib borish, shuningdek dinimizning muqaddas kitobi Qur’oni

Karimni o'qish va tushunish va hadisi shariflarni ham o'zbek tiliga o'girishga yordam beradi. Yaqin o'tmishgacha musulmon o'lkalarida arab tilini bilmaydigan kishi ziyoli hisoblanmagan.

Arab davlatlarining kengayishi va islom dinining tarqalishi bilan arab tili Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika va Pireney yarim orollarigacha bo'lgan maydonga tarqaldi. Hatto Yevropa qit'asining g'arbida ham, hozirgi Ispaniya hududida arab davlati – "Andalusiya" tashkil topgan edi. XIX asrga kelib arab tilining yangi varianti, ya'ni zamonaviy arab tili paydo bo'ldi. Zamonaviy arab tili, hozirgi kunda 22 dan oshiq davlatlarda davlat tili maqomidadir. "Hozir arab adabiy tili bilan bir qatorda ko'plab mahalliy dialektlar ham mavjud. Eng ko'p tarqalgan dialektlardan Saudiya Arabistoni, Iroq, Suriya, Misr va Mag'rib lahjalaridir. Arab adabiy tiliga eng yaqini Suriya dialekti hisoblanadi. Arab adabiy tilidan katta farq qiluvchi dialekt – bu Mag'rib dialektidir. Har bir dialekt o'z navbatida bir necha shevalarga bo'linadi. Lahjalar arab adabiy tiliga qaraganda tor mahalliy, hududiy ahamiyatga egadir"¹. Mamlakatimiz hududida ham o'zbek tilining bir qancha shevalari mavjud bo'lib, Xorazm shevasi o'zbek adabiy tilidan katta farq qiluvchi sheva hisoblanadi bizning nazarimizda.

"Arablar kelib chiqishi jihatidan ikki toifaga bo'linadilar: 1) العرب العاربة – asl arablar (masalan, Hijoz arablari). 2) العرب المستعربة – arablashgan arablar, ya'ni islom kirishidan avval arab bo'lmagan, musulmon bo'lganidan keyin vaqt o'tishi bilan asl millatini unutib, o'zini arab hisoblay boshlagan xalqlar (masalan, Shimoliy Afrikada yashovchi arablar). "Arablashgan arablar"ning tillariga avvalgi ona tillari ta'sir ko'rsatmay qolishi mumkin emas edi, albatta. Til va shevalar o'rtasidagi tafovutning anchagina qismi shu omil bilan bog'liq. XV asrdan boshlab arablar yashaydigan mintaqalarning talaygina qismi Usmoniy turklar tasarrufida bo'ldi. XVIII asrdan XX asrning ikkinchi yarimlarigacha arab diyorlarida Ovruponing mustamlakachi davlatlari

¹ Қодиров.Т.Ш, Алиев.Д.И. Араб тили лексикологияси. Тошкент 2010.

(Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi) o'z hukmlarini o'tkazdilar. Bu ham tilda o'z aksini topmay qolmaydi"².

Arab tilshunos olimlari va jahon arabshunos-shevashunos olimlari hozirgi zamon shevalarini ikki katta guruhga bo'ladilar³:

1. Mashriq arab shevalari. Bu shevalar turkumiga Arabiston yarim orolida joylashgan Saudiya Arabistoni, Yaman, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon hamda Iroq, Suriya, Livan va boshqa shevalar kiradi. Bu shevalar fonetik, morfologik, sintaktik, leksik va grammatik jihatdan umumiylikka ega bo'lsalar, ikkinchi tarafdin har bir mamlakatdagi shevaning o'ziga xos xususiyati ham bor.

Yaman shevasida Tixama viloyatida ع ayn ء hamzaga almashtirib talaffuz etiladi	
أمر	عمر
Sana viloyatida esa ق qof "g" ga aylantirib talaffuz etiladi	
gal	قال
gamar	قمر
Iroq, Yaman, Kuvaytda	
gult	قلت
Iroqda ك kof tovushi «ch»ga aylantirib talaffuz etiladi	
chalb	كلب

2. Arab mavrid shevalari. Bu shevalar turkumiga Shimoliy va Sharqiy Afrikadagi arab davlatlarining shevalari kiradi. Misr dialektida ق qof o`rnida ء hamza talaffuz qilinadi.

ana ult	أنا قلت
huva ol	هو قال
ج jim o`rnida «g» talaffuz etiladi.	

² Абдужабборов А. Араб тили. Тошкент 2005.

³ Mamataxunova D.K. Arab filologiyasiga kirish. Toshkent 2008.

Gamil	جميل
Gabbar	جبار
ث sa o‘rnida «t» talaffuz etiladi.	
talat	ثلاث
tabit	ثابت
ذ zal o‘rnida «d» talaffuz etiladi.	
dahab	ذهب

Arab adabiy tili – davlat tili, OAV, adabiy asarlar, fan, yagona yozuv hamda barcha arab mamlakatlari uchun rasmiy til hisoblanadi. Bu til arab xalqlari birligining timsolidir. Lekin arablar turmushda asosan lahjadan foydalanadilar. Turli arab mamlakatlarning xalqlari suhbatga kirishganlarida bir-birlarini juda qiyin tushunadilar. Arablarning xalq tili – العامية (lahja) kundalik aloqa vositasi hisoblanib qolmasdan, u kino, teatr, radio, televideniya ham keng qo‘llaniladi.

Misr lahjasida yozuvda ifodalanmaydigan “e” tovushini o‘rniga qarab “a”, “i”, hattoki “u” tovushini ham ifodalashini kuzatish mumkin. Masalan: هنا “huna” so‘zi “hena” deb talaffuz qilinadi. خدمة “xidma” so‘zi “xedma” deb talaffuz qilinadi. كيف “kayf” so‘zi esa “keyf” deb talaffuz qilinadi. Misr lahjasida ko‘p qo‘llaniluvchi “nima?”- “إيه” (ey) so‘zi arab adabiy tili normalariga zid ravishda gap boshida kelmaydi:

Lahjada	Arab adabiy tilida
اسمك إيه؟	ما اسمك؟
عاصمة بلدك إيه؟	ما عاصمة بلدك؟
جنسيتك إيه؟	ما جنسيتك؟

Misr lahjasiga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri kishilik olmoshlarining ikkilik shakli deyarli ishlatilmaydi, ularning o‘rniga ko‘plik variantidan foydalaniladi. Ko‘plikni ifodalovchi kishilik olmoshlari asosan muzakkar jinsida ifodalanadi (muannasni ifodalashda ham). Kishilik olmoshlarining o‘zida ham bir qancha o‘zgarishlar kuzatiladi:

Lahjada	Adabiy tilda	Lahjada	Adabiy tilda	Lahjada	Adabiy tilda	
Ko'plik	Ko'plik	Ikkilik	Ikkilik	Birlik	Birlik	Shaxs
إحنا	نحن			أنا	أنا	I
إنتو	أنتم		أنتما	إنت	أنت	II (mz)
	أنتن			إنتي	أنت	II (mn)
هم	هم		هما	هو	هو	III (mz)
	هن			هي	هي	III (mn)

So'zlashuvda inkorni ifodalash uchun so'z oxiriga ش qo'shimchasi qo'shiladi:

Uning soati bormi?	هو عنده ساعة؟
Yo'q, uning soati yo'q.	لا، هو ما عندوش ساعة.
Uning isitmasi bormi?	هو عنده حرارة؟
Yo'q, uning isitmasi yo'q.	لا، هو ما عندوش حرارة.

Misr lahjasi uchun xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri shuki, "emas" ma'nosidagi so'zni ifodalash uchun مش so'zidan foydalaniladi. Bu so'zning nutqda qo'llanilishi boshqa ba'zi arab mamlakatlari uchun ham xos hisoblanadi.

Men Misrlik emasman	أنا مش مصري
Mavjud emas	مش موجود
U aktrisa emas	هي مش ممثلة
Men Laylo emasman	أنا مش ليلي
U band (mashg'ul) emas	هو مش مشغول

Kishilik olmoshlari bilan عند so'zining inkor shakli quyidagi holatda ifodalanadi:

أنا ما عنديش	أنا عندي
إنت ما عندكش	إنت عندك
إنتي ما عندكيش	إنتي عندك
هو ما عندوش	هو عنده

هي ما عندهاش	هي عندها
إحنا ما عندناش	إحنا عندنا
إنتو ما عندكوش	إنتو عندكو
هم ما عندهمش	همّ عندهم

ب Qo'shimchasi fe'llarga ham qo'shiladi. Hozirgi kelasi zamon fe'li oldiga esa ب qo'shimchasi ham qo'shiladi va quyidagi holatda tuslanadi:

ما باشتغلش مهندس	أنا باشتغل مهندس
ما بتشتغلش مهندس	إنت بتشتغل مهندس
ما بتشتغليش مهندسة	إنتي بتشتغلي مهندسة
ما بيشتغلش مهندس	هو بيشتغل مهندس
ما بتشتغلش مهندسة	هي بتشتغل مهندسة
ما بنشتغلش مهندسين	إحنا بنشتغل مهندسين
ما بتشتغلوش مهندسين	إنتو بتشتغلوا مهندسين
ما بيشتغلوش مهندسين	همّ بيشتغلوا مهندسين

Formulasi:

ما + ب + فعل + ش	ب + فعل
------------------	---------

ماجد بيشتغل طباخ في فندق هيلتون.

Majid Hilton mehmonxonasida oshpaz bo'lib ishlaydi.

هدى بتشتغل دكتورة في مستشفى الولادة.

Huda tug'ruqxonada shifokor bo'lib ishlaydi.

Yaqinlikni ifodalovchi ko'rsatish olmoshlarida ham tilga oson bo'lishi uchun so'zlarni qisqartirib aytish holatlari kuzatiladi. Faqatgina arab adabiy tilini o'rgangan insonlar uchun bu so'zlarning ma'nosini bilish nisbatan murakkabroq sanaladi. Lahjalarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishni arab adabiy tilini o'rganib bo'lgandan so'nggina amalga oshirish tavsiya qilinadi. Misr lahjasidagi yaqinlikni ifodalovchi ko'rsatish olmoshlari:

Lahjada	Fus'hada	Lahjada	Fus'hada
---------	----------	---------	----------

ده مدرس	هذا مدرس	ده	هذا
دي مدرسة	هذه مدرسة	دي	هذه
دول مدرسین/مدرسات	هؤلاء مدرسون/مدرسات	دول	هؤلاء

Lahjalarga xos bo'lgan bu kabi o'zgarishlar va o'ziga xosliklarni har bir arab davlatida kuzatish mumkin. Ularning har birini o'rganish uchun alohida mehnat talab qilinadi. Til mavjud ekan unda o'zgarishlar bo'lishi tabiiy. Tilni qat'iy normaga solib bo'lmaydi. U doimo rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan ilmi toliblar ham o'z bilimlarini rivojlantirishlari zarur. Zero, ulamolarimiz aytganlaridek: "Bugun kitob o'qigan odam kechagi odam emas".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдужабборов А. Араб тили – Тошкент, 2005.
2. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси – Тошкент, 1997.
3. Хасанов М., Абзалова М. Араб тили дарслари – Тошкент, 2016.
4. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении – Москва, 2001.
5. Қодиров.Т.Ш, Алиев.Д.И. Араб тили лексикологияси – Тошкент, 2010.
6. Mamataxunova D.K. Arab filologiyasiga kirish – Toshkent, 2008.
7. Louis S., Soliman Iman A. Kallimni 'Arabi (An Intermediate Course in Spoken Egyptian Arabic) – Cairo * New York, 2007.